

NAZAR ESHONQUL HIKOYALARIDA FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING KOMPONENT TARKIBI VA USLUBIY VAZIFASI

Rahmatova Ulkanoy Dilshod qizi

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti

4- bosqich talabasi. 94-877-17-28

Annotatsiya: Ushbu maqola o'zbek tilshunosligida frazeologizmlarning komponent tarkibini o'rganishga bag'ishlangan. Tadqiqotda yozuvchi Nazar Eshonqulning hikoyalari leksik-semantik va stilistik asos sifatida olingan bo'lib, ularda uchraydigan frazeologizmlarning komponent tarkibi, semantik va stilistik xususiyatlari tahlil etiladi. Maqola tilshunoslikda frazeologik birliklarni o'rganishga yangi yondashuvlar taqdim etadi.

Kalit so'zlar: *frazeologizm, ibora, komponent, semantika, ko'chma ma'no, kontekst, badiiy nutq, hikoya.*

Til — millat tafakkuri, madaniyati va dunyoqarashining asosiy ifodasidir. Til birliklari ichida frazeologik birliklar alohida ahamiyatga ega. Ular xalqning asrlar davomida shakllangan tajribasi, obrazli fikrlashi va ruhiy olamini o'zida mujassam etadi. Ayniqsa, badiiy adabiyotda frazeologizmlar yozuvchi uslubini boyitish, obraz yaratish va hissiy ta'sir kuchini oshirishda muhim vosita hisoblanadi. Nazar Eshonqul hikoyalaridagi frazeologik birliklar ham ana shunday vazifalarni to'laqonli bajara olgan.

Frazeologiya tilshunoslikning muhim bo'limlaridan bo'lib, u tilning ifodaviyligini ta'minlovchi barqaror birikmalarni o'rganadi. Frazeologik birliklar so'z birikmalaridan farq qilib, majoziy ma'noni ifodalovchi turg'un birikmalar hisoblanadi. Ular nutq jarayonida qo'llanilar ekan, ma'noning bo'yoqdorligini oshirishda hamda obrazli ifodalashda yordam beradi.

Tilshunos olim Y. Pinxasov ta'kidlashicha, frazeologizmlar dastlab adabiyotshunoslikda yuzaga kelgan. Bir tildagi asarlarni ikkinchi tilga o'girish jarayonida barqaror birikmalarni aynan tarjima qilish mumkin bo'lmay qolgan. Natijada, bu tillardagi barqaror birikmalar o'rganila boshlangan. Keyinchalik lug'atlarda so'z ma'nolari izohi berilganidek iboralarning ham izohlari berila boshlangan. Shunday qilib frazeologik iboralar ma'nosi, grammatik qurilishi tilshunoslik fanida ham o'rganila boshlangan. Hozirgi kunda frazeologizm masalalari adabiyotshunoslikda ham, tilshunoslikda ham o'rganilmoqda.¹

1. ¹ Pinxasov Я. Хозирги ўзбек адабий тили Тошкент: "Ўқитувчи" нашриёти – 1969. 54- бет

Sh. Rahmatullayevning fikriga ko'ra, frazeologik birliklar frazeologizm, frazeologik birlik kabi terminlar bilan atalishi yoki leksema, morfema terminlariga monand ravishda frazema deb nomlanishi mumkin. Frazema ikki va undan ortiq leksema o'zaro semantik-sintaktik bog'lanib, umumlashma ko'chma ma'no kashf etishi bilan yuzaga keladi.²

Frazemalarda ifoda plani va mazmun plani mavjud. Frazemalarning ifoda plani deb iboraning tarkibi, uni tashkil etgan birliklar tushuniladi. Masalan: sharti ketib parti qolgan iborasi birikmaga teng konstruksiya hisoblanadi. Frazemalarning mazmun plani deb esa u anglatgan umumiy yaxlit ma'no nazarda tutiladi va ko'chma ma'noda bo'ladi. Masalan: "bosh olib ketmoq" -butunlay tashlab va qaytmas bo'lib ketmoq ma'nolarida ishlatiladi. Iboralar mazmun planidan kelib chiqib, ular ijobiy yoki salbiy bo'yoqda bo'lishi ham mumkin.³

Frazeologizmlarning komponent tarkibi bu frazeologik birlikni tashkil etuvchi so'zlar (komponentlar) va ularning munosabatini anglatadi. Frazemalarning komponentlari u yoki bu darajada ma'no mustaqilligiga ega bo'ladi. Ibora anglatgan ma'noni yuzaga keltirishda ishtirok etishiga ko'ra komponentlardan biri asosiy tayanch va mantiqiy asos hisoblanadi.

Tilshunoslikda frazemalar tarkibidagi so'zlar leksik ma'nosini yo'qotgan, so'zdan tashqaridagi til hodisasi sifatida qaralsa, boshqa tilshunoslar komponentlar o'zlarining leksik xususiyatlarini saqlab qoladi, ammo bu turli frazemalarda turlicha yuz beradi, deb e'tirof etadilar. Aksariyat tilshunoslar leksemalar frazemalar tarkibiga kirgandan keyin ham o'zlarining leksik ma'nolarini saqlab qolishini e'tirof etadilar. Ammo ayrim frazemalarda leksik ma'no to'liq saqlanadi, boshqalarida esa leksik ma'no bir qadar kuchsizlanadi.⁴ Frazeologizmlar uni tashkil etgan so'zlarga ko'ra turli qoliplarda bo'lishi mumkin. Masalan: Ot + fe'l, Sifat + ot, Ravish + fe'l. Iboralarni tashkil etgan so'zlarning soniga ko'ra ular:

- a) ikki komponentli, (g'ashiga tegmoq)
- b) uch komponentli (tomdan tarasha tushgandek)
- c) ko'p komponentli (og'zidan bodi kirib, shodi chiqadi) bo'lishi mumkin.

Nazar Eshonqul hikoyalarning iboralar komponent tarkibi rang-barangligi bilan ajralib turadi. Xususan, "holdan toyib", "yurak hovuchlab", "g'ashiga tegmoq", "ko'zi yetmoq" kabi frazeologizmlar asosan ot + fe'l modelida shakllangan bo'lib, qahramonlarning ruhiy va jismoniy holatini ifodalashda muhim vosita hisoblanadi. Masalan, "holdan toymoq" iborasi kuchli charchoq holatini bildirsa, "yurak

² Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o'zbek tili. Toshkent: Universitet, 2006. – 417- bet.

³ Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. T.: "Talqin" Toshkent 2005. 216-bet.

⁴ Алматова Ш. Ўзбек тили фраземаларининг компонент таҳлили. Филол. Фан. номз. Дисс. – Тошкент, 2008. – Б. 12.

hovuchlab” birligi qo‘rquv yoki xavotirni obrazli tarzda ifodalaydi. Shuningdek, “tomdan tarasha tushganday”, “og‘zidan bodi kirib, shodi chiqib” kabi ko‘p komponentli frazeologik birliklar nutqqa emotsional-ekspressiv bo‘yoq berib, voqeahodisalarning kutilmaganligi yoki keskinligini kuchaytiradi. Bunday birliklar orqali yozuvchi nafaqat qahramonlarning ichki kechinmalarini ochib beradi, balki badiiy matnning ta’sirchanligini ham oshiradi. Demak, frazeologik birliklarning komponent tarkibi ularning semantik va stilistik xususiyatlarini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Kontekstda ishtirok etgan iboralar yozuvchining subyektiv bahosini ham beradi. Masalan: “*U ichgan paytlari juda muloyim bo‘lib qolardi; uning kasbi cho‘lquvarlikka hech bir aloqasi yo‘q, tabiatan qo‘rs, qo‘pol muomalasi bilan cho‘lga kelib orttirgan manmanligiga takabburlik qo‘shilib uni odamlardan bezdirib qo‘ygan, u vazifasiga kirmasa ham, har bir ishga **burnini tiqaverar**, o‘zicha ko‘rsatmalar berar – tuman sarkotibi kelganda dalalarni Omon Juma emas, u birga qo‘shilib aylanar, negadir sarkotib oldida o‘zini juda emin-erkin tutar, hatto hazil-huzul ham qilib qo‘yardi.*” (Nazar Eshonqul “Bevaqt chalingan bong hikoyasidan) Ushbu gapda ishtirok etgan “burnini tiqaverardi” frazemasi salbiy baho, tanqidiy munosabat bildirib, gapni jonli va obrazli qilgan. Gapdan oldin berilgan qo‘rs qo‘pol, manman, takabbur kabi sifatlar fonida “burnini tiqaverardi” iborasi bu sifatlarning ma’nosini mustahkamlaydi, qahramonning ijtimoiy xulqini ochib beradi.

Nazar Eshonqul hikoyalarida ishtirok etgan iboralarning komponent qoliplarini quyidagicha keltirish mumkin.

Komponent qoliplar	Misollar	Misol tahlili
Ot+fe‘l	<i>Seni yaxshi bir ayolga uylantirib qo‘yaman, mana, ko‘rsan, hali onasi o‘pmaganiga – derdi kotib uning yelkasiga xuddi qari otni qamchilaganday qars-qars urib.</i>	Ushbu gapdagi frazeologik birlik ikki komponentdan tashkil topgan bo‘lib, so‘zlashuv uslubiga xoslangan. Kontekstda yozuvchining obraz nutqi yordamida uning xarakterini ochib berishiga xizmat qilgan.
Sifat+ot	<i>Posyolkada birinchi marta paydo bo‘lganda uning yuzida hali navqironlik davri shamlari o‘chmagan, badani va serajin bo‘yniga chirigan yog‘och isi o‘tirishib qolgan, dimog‘idan yoqimli tamaki hidi kelib turar, garchi o‘tkir va azobli ko‘zlaridagi yovvoyi mushukdek yot mung uni odamlardan chetga tortib tursa-da, ochiq istarasi va salti-suvoy suni-sumbati kishida tanishish va suhbatlashish istagini tug‘dirardi</i>	Mazkur ibora asar qahramonini obrazli tasvirlashga xizmat qilgan bo‘lib, neytral-so‘zlashuv uslubiga xoslangan.

Son+sifat	Kotib bir so'zli odam edi – u qorovulga bergan va dasining ustidan chiqdi ; inspektor va tumandagilarning xarxashasiga qaramay, mehmonxona qorovulligida olib qoldi; uch yil badaliga unga biron marta yomon gapirmadi; kotibning bor alami ichida edi, shuning uchun deyarli har kuni ichar va qorovulga ham ichirar, so'ng to ertalabgacha qotib uxlardi.	Parchadagi “bir so'zli” iborasi ikki komponentdan tashkil topgan bo'lib, badiiy uslubda, og'zaki nutqqa xos. U orqali yozuvchi qahramonning xarakterini obrazli tarzda ochib bergan.
Ot+ot	Agar uning oilasi jo'jabirday jon , ustiga ustak, oz-moz xasisligi bo'lmaganda, har bir tiyinni xuddi jonini olishayotganday baxillik bilan ishlatmaganda, ehtimol, qo'lni sezmagam ham bo'lardi.	Bu parchada ibora oilaning qaramog'ida bola chaqasi ko'pligini bildirish uchun qo'llanilgan.

Hikoyalarda keltirilgan frazeologik birliklarning eng ko'p tarqalgan komponent qolipi ot+ fe'l ko'rinishidagi iboralardir. *Men to'rtinchini qanchalik maqtamayin do'stim o'z so'zida turib oldi.* (ot+ fe'l, o'z fikrini o'tkazishga intilib qaysarlik qilmoq.) Shuningdek, yozuvchi komponent tarkibida fe'lning barcha xoslangan shakllari ishtirok etgan iboralardan foydalangan. Masalan, *Biz biron nojo'ya qilg'imiz yoki xatti-harakatimiz bilan o'qituvchimiz g'ashiga tegishdan, to'g'rirog'i, uni bezovta qilishdan juda cho'chir, shu sababli saboq payti har bir fikrni tafakkurimiz va xotiramiz minoralariga og'ir jangdan so'ng erishilgan zafar yalovlari kabi bir-bir ilib qo'yishga harakat qilardik, zero, bizning saboqxona ulug' hamda qudratli sarkardaning bir hamlasidayoq tor-mor bo'lgan va sukutga cho'mgan maydonni eslatar edi.* Ushbu gapda ajratib ko'rsatilgan birikmaning birinchi komponenti mavhum ot bo'lsa, ikkinchisi fe'lning otga xoslangan shakli hisoblanadi.

U yuzini teskari o'girib oldi-da, yana pishillab beozor uyquga ketdi, kelinchak esa bo'g'ziga toshday tiqilib turgan yig'ini bosish uchun tishlarini qahr bilan bir-biriga bosib turar, agar tishlarini qo'yib yuborsa, bo'g'zidan butun uyni, butun hovlini, butun qishloqni, butun dunyoni boshiga ko'taradigan ayanchli yig'i otilib chiqishini anglar edi. Ushbu gapda esa komponentida sifatdash ishtirok etgan iborani ko'rishimiz mumkin.

Ravishdosh ishtirok etgan frazeologik birlikka misol qilib quyidagi gaplarni keltirish mumkin.

Nazoratchi sifatida mahkumga tashlanib, uni bir pasda og'iz-burnini qonga bo'yar, tuzni shusiz ham halvirab qolgan yaralar ustiga separdi

Bu qo'lyozmadan alahsirash, vasvasa anqib turar, so'zlar ishlanmagan, varaqlar yuviqsiz yuz kabi kir-chirga belangan, so'ng g'azab va nafrat bilan sahifalar toki yirtilib ketguncha chizib tashlangan, bu manzaralardan biron narsani aniqlab olish qiyin edi.

Frazeologik birliklarning komponent tarkibidagi so'zlar har doim ham birgalikda kelavermaydi. Ba'zan ular o'rtasida boshqa birliklar ham kelishi mumkin. *U esa o'choq boshida kuymalanar, yaqin oradan xas-xashak, tezak terib, tutab yotgan o'choqni hadeb puflar, achishgan ko'zlarini kotibga mahramona ehtrom bilan tikib qo'yardi.*

Xulosa qilib aytganda, frazeologik birliklar tilning eng muhim va ta'sirchan qatlamlaridan biri bo'lib, ular orqali millatning tafakkuri, ruhiyati va ko'p asrlik tajribasi ifodalanadi. Xususan, Nazar Eshonqul hikoyalarida qo'llanilgan frazeologizmlar nafaqat tilning obrazlilikini oshiradi, balki qahramonlarning ichki dunyosini, ruhiy kechinmalarini hamda ijtimoiy muhitini chuqur ochib berishga xizmat qiladi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, yozuvchi asarlarida frazeologik birliklarning komponent tarkibi rang-barang bo'lib, ayniqsa ot + fe'l qolipi keng qo'llanadi. Bu esa harakat va holatni jonli, aniq va ta'sirchan ifodalash imkonini beradi. Shuningdek, ko'p komponentli iboralar nutqqa emotsional-ekspressiv bo'yoq bag'ishlab, voqealarning keskinligi va drammatizmini kuchaytiradi.

Frazeologizmlarning kontekstda qo'llanishi yozuvchining subyektiv munosabatini ifodalash, qahramonlarga baho berish va badiiy matnning umumiy estetik qiymatini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Shu jihatdan, Nazar Eshonqul hikoyalaridagi frazeologik birliklar nafaqat lingvistik, balki badiiy-estetik nuqtayi nazardan ham alohida ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Алматова Ш. Ўзбек тили фраземаларининг компонент таҳлили. Филол. Фан. номз. Дисс. – Тошкент, 2008. – Б. 108.
2. Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. T.: "Talqin" Toshkent 2005. 260 bet.
3. Пинхасов Я. Хозирги ўзбек адабий тили Тошкент:"Ўқитувчи" нашриёти – 1969
4. . Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг фразеологик луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1992.
5. Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o'zbek tili. Toshkent: Universitet, 2006. – 476 bet.
6. Йўлдошев Б. Ўзбек тилида фразеологизмларнинг услубий ва прагматик имкониятлари. – Самарқанд: СамДУ нашри, 2002.
7. Nazar Eshonqul Saylanma. 1-jild. Toshkent: Akademyashr, 2025- 520 bet.